



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA AXBOROTNING O'RNI HAMDA ERKINLIGI

Eminova Muhayyo va Abduvahhobova Marjona

Qo'qon davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi Nazirova Feruzaxon va Aniq fanlar va muhandislik fakulteti Amaliy matematika yo'nalishi 02/25 guruh talabalari

Annotatsiya. *Axborot jamiyat a'zolarining dunyoqarashini shakllantiradi. Ta'limning ochiqligi, masofaviy o'qish imkoniyatlari va global axborot tarmoqlari inson kapitalining sifatini oshiradi. Jamiyatda axborot madaniyatining yuksalishi esa har bir shaxsning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga va umumiy taraqqiyotga hissa qo'shishiga zamin yaratadi.*

Tayanch tushunchalar: *axborotlashgan jamiyat, internet, axborot, shaxs ma'naviyati, ommaviy axborot vositalari*

Аннотация: *Информация формирует мировоззрение членов общества. Открытость образования, возможности дистанционного обучения и глобальные информационные сети повышают качество человеческого капитала. Рост информационной культуры в обществе создает основу для активного участия каждого человека в социальных процессах и его вклада в общий прогресс.*

Ключевые понятия: *информационное общество Интернет Информация духовность личности средства массовой информации*

Abstract: *Information shapes the worldview of society members. The openness of education, distance learning opportunities, and global information networks enhance the quality of human capital. The rise of information culture in society creates a foundation for every individual to actively participate in social processes and contribute to general progress.*

Key concepts: *information society internet information spirituality of the individual mass media*

Kirish

Axborot borliqdagi narsa yoki jarayonlarning holatlari, xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarning turli vositar va sezgi a'zolarimiz orqali bizga yetib kelishi va ongimizga ta'siri hamda bu ma'lumotlammg ongimizda boshqa ma'lumotlar bilan bog'lanishi ekan. Demak, inson borliqning bir qismi bo'lgani uchun, u o'zi haqida ham (og'riq, isib ketish, charchash va hokazo) ma'lumot oladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hozirgacha yig'gan barcha ma'lumotlarimiz axborot bo'lib, axborotlar bog'langach csa bilimni tashkil etadi.

Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli"ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aylib o'lish joiz. Bu esa o'z navbalida, mamlakatimizning axborot resurslari va leiekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ulaming benuqson faoliyatini ta'minlashga da'vat etmoqda. Axborot globallasuvi va shaxs ma'naviyati, har qanday axborot oqimining shaxs manaviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so'z yuritir ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi:

Birinchisi - axborot oqimi-mafkuraviy tahdid;

Ikkinchisi - shaxs ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan shaxsda shakllangan immunitet masalalaridir.

Gap shundaki, axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra malum bir maqsadga yo'naltirilgan boladi. Uning qanchalik shaxsga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsadi sari puxta yo'naltirilganligiga bogliq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bogliq. O'tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bogliq vaziyatning murakkabligi, ya'ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida yetarlicha demokratik tajriba yo'qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarining ko'pchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning o'ziga xos barometri bolib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon bolsa, beqarorlik ko'rsatkichi. siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining o'ziga xos alomati sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi masalada avvalo, shaxsning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo boladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan o'rganadigan bolsak, mafkuraviy immunitet - har qanday axborot ta'siriga tushib qolmaslik, avvalo, o'sha inson ongu-tafakkuri, idroki nechoglik o'tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bogliq. To'g'ri, avvalo hamada ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanuniga qadar davom etadi. Xususan, bunda malum bir yoshning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod - milliy faxr shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini qadrlagan, o'z tarixini bilgan, Vatanga e'tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o'ziga xos psixologiya va masalaga o'ziga xos yondashuv paydo bolgan boladi. U har qanday axborot zamirida malum bir maqsadni o'rgana boshlaydi.

Axborot — taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Axborot jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri bo'lib, barcha sohalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tarixiy jihatdan axborotning roli

Tarixga nazar tashlasak:

Yozuvning kashf etilishi — axborotni saqlash imkonini berdi

Kitob bosish — bilimlarni ommalashtirdi

Internet — axborotni global darajada tarqatdi

Har bir bosqichda axborot taraqqiyotga turtki bo'lgan.

Ilm-fan sohasida

Axborot ilmiy tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Har bir yangi kashfiyot oldingi bilimlarga tayanadi. Masalan:

Tibbiyotda yangi dori vositalari

Texnikada yangi qurilmalar

Fizika va kimyo sohasidagi ixtirolar

Iqtisodiyotda

Axborot iqtisodiy qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Bozor tahlili

Raqobatchilar haqida ma'lumot

Mijozlar ehtiyojini o'rganish

Kimda axborot tez va aniq bo'lsa, o'sha muvaffaqiyatga erishadi.

Ta'lim tizimida

Zamonaviy ta'lim axborot texnologiyalarisiz rivojlana olmaydi:

Onlayn darslar

Elektron kutubxonalar

Video darslar

Talabalar istalgan joyda bilim olishi mumkin.

Siyosat va boshqaruvda

Axborot davlat boshqaruvida muhim rol o'ynaydi:

Elektron hukumat tizimi

Onlayn xizmatlar

Ochiq ma'lumotlar

Bu esa shaffoflikni ta'minlaydi

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, axborot jamiyatning intellektual salohiyatini birlashtiradi va insoniyatni yanada yuqori sivilizatsiya sari yetaklovchi asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.2.2. “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: 4. Ma'naviyat, 2008.
3. Xolmurodova N. “Axborot madaniyati va yoshlar”. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mamatqulov B. “Raqamli jamiyat va axborot xavfsizligi”. – Toshkent, 2022.
5. “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2021